

KOREYS VA O'ZBEK LINGVOMADANIYATIDA AYOLGA BO'LGAN
MUNOSABATNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Yo'lchiyeva Zuhra Ummatqul qizi,

zhrayulchiyeva7@gmail.com

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada koreys va o'zbek lingvomadaniyatida ayol konseptini ifodalovchi evfemizmlarning yosh davrlariga ko'ra xususiyatlari, balog'at va nikoh munosabatlarida ayollikning aks etishi yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: evfemizm, tabu, yosh davrlari, ayol, konsept, lingvomadaniyat, balog'atga yetish, 아줌마, 계집, 이모, 부인.

Koreys va o'zbek lingvomadaniyatida ayolga bo'lgan munosabat avvalo nikoh munosabatlari bilan aloqadordir. Bu jihatdan ikki madaniyatda ham nikoh ayolning balog'atga yetishi bilan bog'liq tushuncha hisoblangan. Koreyada balog'atga yetgan qiz va yigitlar uchun maxsus marosimlar ham mavjud bo'lgan. Masalan, qizlar uchun 계례[gyerye] marosimi o'tkazilgan bo'lib, unda qarindosh-urug'lar orasida yuqori mavqega ega bo'lgan ayol uch kun oldin uyga kelib e'zozlanadi va marosim kunida voyaga yetgan qizning sochiga 비녀[binyeo] – maxsus to'g'nog'ichni taqqan. O'rta asrlarda mazkur buyum 빈혀[binhyeo], 것고지[geosgoji] deb ham atalgan.

Bunda balog'atga yetish koreys tilida 성년이 되다 [seongnyeon-i doeda] so'zi orqali ifodalanadi: 그가 성년이 되면, 그의 할아버지로부터 많은 유산을 물려받을거야 (voyaga yetsa bobosidan katta meros qoladi¹). Bundan tashqari aynan shu ma'noni ifodalovchi 성년에 이르다(voyaga yetmoq), 성인이 되다(kattaga aylanmoq), 충분히 발달하다 (to'liq rivojlanmoq), 숙달하다(yetuklikka erishish), 성공하다(muvaffaqiyatga erishmoq) kabi so'zlardan ham foydalanish mumkin.

O'zbek lingvomadaniyatida ham bu tushuncha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Qizlarni balog'atga yetishi aynan oila qurish yoshiga yetishi bilan teng holda tushunilgan. Qizlarning balog'at yoshi ularning yoshi va unda kuzatiladigan jismoniy o'zgarishlar bilan me'zonlanadi. Bunda ulg'aymoq, yoshiga to'lmoq, ko'zga tashlanib qolmoq, bo'yi yetmoq/cho'zilmoq, ko'zga ko'rinmoq, katta qiz bo'lib qolmoq kabi so'z va iboralar balog'atga yetmoq ma'nosida qo'llaniladi. Masalan: 1. Bo'yi yetgan

¹ <https://m.blog.naver.com/tjina0210ooi/222509370792>

qizning orzusi osmondagi yulduzga o'xshaydi (O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi). 2.– Obbo, Mohchuchuk-ey, katta qiz bo'lib qolibsiz-a! (Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar). 3. Bir payt xonaga xolamning bo'y yetib, ko'zga tashlanib qolgan nabirasi – Muborak kirib kelib: – Tog'a, sizni Shoironing oyisi so'rayapti, – deb qoldi. (Muhammad Xayrullayev. Birinchi muhabbat).

Ko'rinib turibdiki, yuqorida berilgan misollarning barchasi ayni qizning balog'atga yetganligiga ishora qilmoqda va bu ma'no qay shaklda berilmasin, so'z ma'nosida qo'pollik sezilmaydi va fikrlar evfemik madaniyat bilan yetkazilmoqda. O'zbek madaniyati tarixida koreys madaniyatida bo'lgani kabi ayol yoshi ma'lum me'zonlar asosida davrlarga bo'linmagan bo'lsa-da, yosh farqlarini ifodalovchi so'zlar orqali mazkur farqliklar anglashilgan.

O'zbek tilida o'rta va katta yoshli ayolni ifodalovchi “**xotin**” so'zi turmushga chiqqan va chiqmagan ayol uchun ham qo'llanilishi mumkin: Qandoq polvon xotin edi, yursa yer titrardi. (Said Ahmad. Jimjitlik). Shuningdek, aynan shu ma'noda qo'llanuvchi “**juvon**” so'zi ham mavjud bo'lib, bu so'z mohiyatan o'rta yoshli ayolni bildiradi: Juvonning chehrasiga daf'atan iliq bir mehr toshib, ma'yus kulimsiradi. (Shukur Xolmirzayev. O'n sakkizga kirmagan kim bor?).

Juvon so'zi ma'noviy xususiyatiga ko'ra salbiy yoki nisbatan ijobiy ma'nolarda qo'llanishi mumkin. O'zbek tilining izohli lug'atida bu so'zga quyidagicha ta'rif va misollar keltirib o'tilganini ko'ramiz: Juvon :

1. Erga chiqqan, ammo hali yosh ayol. 1. To'xta, xola atrofga olazarak qarab turgan edi, o'rta yashar bir juvon kelib qoldi. (I.Rahim, Chin muhabbat). 2. Yoshi ortib borayotgan har bir qiz, har bir juvon singari, To'raxon ham bola ko'rishni xohlar edi. (M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha).

2. Erdan chiqqan yoki tul qolgan xotin. 1. [Qutidorning] Bordi-keldi bitta juvon qizi bor-ku, muncha, to'yni boshqa, nikohni boshqa qilamiz, deganiga hayronman, – dedi birinchi kishi. (A.Qodiriy. O'tgan kunlar). 2. Juvon olmang, qiz oling: Qizning qiligi yaxshi. “Oq olma, qizil olma”.

3. Iffatini yo'qotgan qiz. – Qizmi, juvonmi, Gulnormi – baribir, men dadamning yosh xotin olishini xohlamayman, - dedi Salim. (Oybek, Tanlangan asarlar)². Yuqoridagi ta'riflardan shuni anglash mumkinki, juvon so'zi nisbatan salbiy ma'noga ega bo'lib, uning o'rniga nutqqa xushmuomalalik ma'nosini yuklash uchun ayol so'zini ishlatish maqsadga muvofiq. Shuningdek xotin, juvon so'zlariga qaraganda ayol so'zi kundalik hayotda, siyosatchilar va diplomatlarning nutqlarida, ishbilarmonlik aloqalarida, shu bilan birga, badiiy va publitsistik asarlarda eng faol qo'llanuvchi so'zlardan ham hisoblanadi va bu so'z ma'nosida asosan ijobiylik aks etadi: Shabada elitib mizg'ir u andak, Ayolning olami o'ng mingta she'r. (Oydin Hojjiyeva. Mushfiq onajon she'ri).

² O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik 1-jild, Toshkent: O'ME, 2006. – B. 110.

O‘zbek tilida ayol va ayollikni bildiruvchi so‘zlar ichida leksik jihatdan turkiy so‘zlar bilan birga arab, fors-tojik tillaridan o‘zlashgan yoki qisman o‘zgartirilgan shakllarni uchratishimiz.

A.J. Omonturdiyevning o‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘atida ayollikni ifodalovchi birliklar batafsil keltirib o‘tilgan bo‘lib, bu birliklarni xotin so‘zi o‘rnida nutqning ifoda-maqсадidan kelib qo‘llash mumkin: ayol, aya, ahliyat, beka, bulbul, vafodor, dildor, yo‘ldosh, yor, yostiqdosh, juft, jufti halol, zavja, zavjai halol, zaifa, zan, kampir, kelin, mahram, ojiza, oila, oyisi, onasi, rafiqa, tanmahram, turmush o‘rtoq, uying guli, umrdosh, umr yo‘ldoshi, xasm, xonim, evluk, o‘rtoq, qalliq, hayot yo‘ldoshi, halol, haram³. Bundan tashqari olimning “Professional nutq evfemikasi” nomli monografiyasida “Qissasi ul-anbiyo” asarida ham ayol so‘zi o‘rnida avrat so‘zi qo‘llanganligi misollar orqali keltirib o‘tiladi: Sulaymon... horib, ochib bir kentga kirdi. Bir qapug‘da bir avrat ko‘rindi⁴. Avrat so‘zi himoyalalmagan, zaif joy degan ma‘noni anglatadi. Ayollarga xos ojizalik sifati orqali hosil bo‘lgan bunday nomlash ham diniy nuqtai-nazar asosida hosil bo‘lmoqda.

Yuqorida keltirilgan ayollikni ifodalovchi evfemik birliklarda kundalik hayotda qo‘llaniluvchi so‘zlar bilan bir qatorda diniy ma‘noga ega bo‘lgan evfemik birliklar ham mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Yuqoridagi misollardan tanmahram, xasm, halol, haram kabi shakllar diniy ma‘no kasb etadi. Shuningdek, turmush o‘rtoq, umr yo‘ldosh, umrdosh, qalliq kabi so‘zlar erkakka ham ayolga ham baravar shaklda almashinib qo‘llanilishi mumkin.

Koreys tilida xotin, turmush o‘rtoq ma‘nosini ifodalovchi 아내 [ane] so‘zi bo‘lib, bu so‘z ‘남자가 결혼하여 함께 사는 여자’ ya’ni “Erkak turmush qurgach, u bilan birga yashovchi ayol” ma‘nosini anglatadi. Misollar: 1. 그는 아내와 사이 좋게 지낸다 – U ayoli bilan munosabati yaxshi. 2. 명랑한 아내는 생애를 즐겁게 한다⁵ – Quvnoq ayol umrni zavqqa to‘ldiradi. Koreys erkaklari ayoliga 여보 [yeobo], 부인 [buin], 자기야 [jagiya], 마누라 [manura], 영감 [yeongam], 집사람 [jipsaram], 애기 엄마 [aegi eomma] deb xitob qiladilar⁶. Bundan tashqari ayol ma‘nosini beruvchi keksa yoshdagi insonlar nutqida ko‘proq uchraydigan 계집 so‘zi ham mavjud. 계집⁷

³ Omonturdiyev A.J. O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati. Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. “Fan” nashriyoti, 2006. 134 bet, 28,30-betlar.

⁴ Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi. Toshkent O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2006. – B. 14.

⁵ <https://m.blog.naver.com/>

⁶ Ashirbayeva D.R. Koreys va o‘zbek diskursida murojaat birliklarining qiyosiy tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent. 2023. – B. 14.

⁷ <https://namu.wiki/w/%EA%B3%84%EC%A7%91>

[kyejib] sof koreyscha so‘z hisoblanadi: Biroq bu so‘z bugungi kunda kamsituvchi mazmunga ega. Mazkur so‘z bilan bog‘langan maxsus maqol ham bor bo‘lib, 계집 입싼 것⁸

“ayol og‘zidagi arzon narsa” ya’ni ayollarning bema’ni gaplarni gapirishi va o‘ylamay, ko‘pirtirib gapirishi odatiga ishora qiluvchi istehzoli ma’no kelib chiqadi.

아줌마 [ajumma] yoki 아주머니[ajumoni] so‘zi bu o‘rta yoshdagi ayolga nisbatan qo‘llaniladigan murojaat bo‘lib, xola, amma ma’nosida keladi. Odatda, u kundalik hayotda o‘rta yoshli ayollarga nisbatan keng qo‘llaniluvchi so‘z hisoblanadi. Qadimgi davrlarda ayollar erta turmush qurishgan, shuning uchun 20 yoshdan oshgan qizlarga 아줌마 murojaati ishlatilgan. Bugungi kunga kelib esa 30 va undan katta yoshdagilar uchun ham 아줌마 [ajumma] yoki 아주머니 [ajumoni] so‘zlari ishlatiladi. Ammo, ba’zi bir ayollar ularga nisbatan bu so‘zning ishlatilishida kamsituvchi ma’no bor, deb hisoblashadi. Buning o‘rniga ko‘proq 이모 [imo] – xola so‘zi qo‘llash maqsadga muvofiq. Ta’kidlash kerakki, 이모 [imo] so‘zi so‘nggi paytlarda kamsituvchi obrazga aylangan 아줌마 [ajumma] ga qaraganda ancha muloyim ma’noga ega murojaat shaklidir. Shuning uchun katta yoshdagi ayol tinglovchilar so‘zlovchidan o‘zlariga nisbatan murojaatda ko‘proq shu so‘zni ishlatishlarini afzal ko‘rishadi.

Nutqda ushbu so‘zga -님 [-nim] qo‘shimchasini qo‘shgan holda 이모님 [imonim] tarzida aytish murojaatga yanayam hurmat va yumshoqlik beradi. Bundan tashqari 아줌마[ajjuma] da o‘rnida qo‘llanuvchi shakllar ham turlicha bo‘lib, bular 아주머니, 여사님, 사모님 kabilar. Ta’kidlash kerakki, 여사님[yeosanim] so‘zi koreys tilida '높이는 말'[nop-ineun mal] ya’ni yuqori hurmat shakli bildiruvchi so‘z hisoblanadi. Odatda 여사님 yoshi katta, turmush qurgan ayolni anglatadi. Bundan tashqari bu so‘z ijtimoiy hayotda obro‘ga ega ayollarga nisbatan ham qo‘llanuvchi murojaat shaklidir.

사모님[samonim] so‘zi esa ma’noviy jihatdan 부인[bu-in] so‘ziga yaqin turadi. Ya’ni bu so‘z uchinchi shaxs sifatida boshqa bir erkakning ayolini hurmat shaklida atashda qo‘llanadi. Bu so‘zning lug‘aviy ma’nosi “o‘qituvchining onasi” bo‘lsa-da, dastlab u o‘qituvchi yoki murabbiyning xotiniga hurmat bilan murojaat qilish uchun

⁸ Chul Woo Son. The motives of self-sacrifice in korean american culture, family, and marriage. 27-page. <https://www.wipfandstock.com>

ishlatilgan⁹. Bugungi kunda esa yoshi katta bo'lgan tanish yoki do'stlarning ayolini aytishda keng qo'llaniladi.

Ma'lumki, koreys jamiyatida o'qituvchi maqomi yuqori baholanadi. Shu sababli, *사모님* odatda *부인* dan ham muloyimroq ma'noga ega. Umuman olganda, koreys xalqi tasavvurida o'qituvchi yoki ustoz deganda yoshi kattaroq odam namoyon bo'lgani uchun yoshi kattaroq tanish yoki do'stning xotiniga murojaat qilish uchun foydalansa bo'ladi, ammo undan kichikroq yoshdagi tanishning xotiniga murojaat qilishda qo'llash g'alati hissiyot olib keladi.

부인 so'zma-so'z tarjima qilinsa "erga yoki erkakka tegishli odam" ma'nosini ifodalaydi va boshqa birovning xotiniga nisbatan muloyim ishora sifatida ishlatiladi. Bu so'zni o'z o'rnida yanada muloyimlashgan shakl *영부인*[yeongbu-in] – birinchi xonim yoki go'zal xonim ma'nosini ifodalovchi so'zni qo'llash mumkin. Bu boshqa odamning xotiniga maqtov sifatida bu uchinchi shaxsda boshqa shaxsning, ayniqsa yuqori martabali shaxslarning xotiniga nisbatan qo'llaniladigan atama. Boshqacha qilib aytganda, kundalik hayotda boshqa birovning xotiniga munosib tarzda murojaat qilishni bildiruvchi bu shaklni ko'pchilik bu so'zni "prezidentning rafiqasi" ma'nosini bildiruvchi so'z sifatida biladi. Biroq koreyscha lug'atda, jumladan, standart koreys tili lug'atda ham bunday ma'no yo'q. *영부인*ning prezidentlarning rafiqalariga nisbatan keng ishlatilishini so'z mohiyatida maqtov va mulozamatning yuqoriligi bilan bilan bog'lash mumkin. O'zbek tilida ham davlat rahbari rafiqasini atashda prezidentning xotini deyishdan ko'ra "birinchi xonim" so'z birikmasi qo'llaniladi. Bu shakl bu norasmiy unvon hisoblanadi va ushbu shaklni qo'llash nutqdagi xurmat va evfemik madaniyatni namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik 1-jild, Toshkent: O'ME, 2006. – B. 110.
2. Omonturdiyev A.J. O'zbek tilining qisqacha evfemik lug'ati. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. "Fan" nashriyoti, 2006. 134 bet, 28,30-betlar.
3. Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi. Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2006. – B. 14.
4. Ashirbayeva D.R. Koreys va o'zbek diskursida murojaat birliklarining qiyosiy tadqiqi: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent. 2023. – B. 14.
5. Chul Woo Son. The motives of self-sacrifice in korean american culture, family, and marriage. 27-p.

⁹ <https://koreanlanguagenotes.blogspot.com/2017/02/whats-difference-between-and.html>

6. 정재용. 한국인의 성(性) 속담 모음.
<https://blog.naver.com/jjy6303/222256625788>

7. 전자책 출간 2023.08.25. <https://ridibooks.com/books/1745006294> 7.

Internet saytlari:

1. <https://www.amazon.com/Motives-Self-Sacrifice-American-Culture-Marriage/dp/1625641605>
2. <https://m.blog.naver.com/tjina0210ooi/222509370792>
3. <https://koreanlanguagenotes.blogspot.com/2017/02/whats-difference-between-and.html>
4. <https://namu.wiki/w/%EA%B3%84%EC%A7%91>
5. <https://www.wipfandstock.com>